



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



**Badiiy detalning verbal ifodasi****Komilova Dilnoza Muhammad qizi**

Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
d.komilova0893@gmail.com +998998305880

Annotatsiya. Ushbu maqolada matnning tarkibiy elementi hisoblangan detal hususida mulohazalar, unga filologik yondashuv, matnning kichik elementi sifatida qarash, e'tirof etish, so'z birikmalari, gap paradigmaları, konseptual jihatdan tahlil qilish borasidagi nazariy masalalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: badiiy detal, konsept, reprezentatsiya, tasviriy detallar; aniqlashtiruvchi detal, xarakter, badiiy matn, yashirin ma'no.

Detal komponentli matnlar yoki detallashtirilgan tarkibli matnlar ham badiiy matnda verbal tasvir usuli orqali bayon qilinadi, shuning uchun ham ular semiologik tamoyillar asosida tahlil qilinadi. Bunday tipdagi matnlar insonning vizual va audial sezgi a'zolari orqali assotsiatsiya qilingani uchun ham to'liq ma'noda belgi qiymatiga ega bo'ladi. Belgida ma'lum bir voqea-hodisalar mazmuniga asoslangan xabarlar ifodalanib, ular badiiy matnda verballashadi. Verbal tasvir bayoniga asoslangan nolisoniy ifoda shakllari xuddi verbal vositalar singari gap yoki matnda so'zlovchining munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Badiiy matnda muallif munosabatining ifodalanishi modallik kategoriyasining asosi hisoblanadi. Olamni tasavvur va idrok qilish bilan bog'liq umumiy axborotlar diktumda namoyon bo'ladi, subyektiv xabarlar esa modusda aks etadi. Axborot va xabarlarning lisoniy ifodalanishida diktumning yetakchilik qilishi muayyan xalq tafakkurining umumiy jihatini belgilaydi. Xabarlarning lisoniy ifodasida modusning ortishi esa muayyan xalq vakilining o'ziga xos individual tafakkurini belgilaydi. Shu o'rinda jiddiy savol tug'iladi. Inson tafakkuri borliqdagi har bir narsani idrok qilish imkoniyatiga ega bo'lgani uchun ham u lisoniy va nolisoniy tasvirga asoslangan propozitsiya tarkibidan diktum va modusni ajratadi. Nolisoniy tasvirda ham muallif tafakkuriga xos diktum va modus mavjuddir. Detaillar orqali ifodalangan fikrlar muallif yoki qahramonlar tafakkuriga xos modusdir. Demak, gapga xos modallik kategoriyasi matnda ham mavjud bo'lib, u dastlab verbal ifodalarda namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda, modallik kategoriyasiga mansub bo'lgan asosiy va qo'shimcha xabarlar diktum va modus usulida ifodalanadi. Badiiy matnda muallif lisoniy va nolisoniy ifodalardan foydalanar ekan, badiiy detallarning verbal tasvirida ham diktum va modusga asoslangan munosabatini ifodalaydi.

Inson tafakkurida mavjud bo'lgan konseptual olam alohida kognitiv tizim sifatida ajratilsa-da, olamning lisoniy manzarasida ular mazmunan farqlanib turadi. Olamning konseptual manzarasida borliqdagi har bir voqea-hodisa va buym-narsalar bor bo'yi bilan namoyon bo'ladi. Ular borliqda qanday mavjud bo'lsa, inson tafakkurida ham shundayligicha idrok qilinadi. Borliqda mavjud bo'lgan elementlar haqidagi tushunchalar inson sezgi a'zolari





tomonidan qabul qilingan konseptual olamdir. Inson ongidan tashqarida “...unga bog‘liq bo‘lmagan holda narsalar olami mavjuddir... dastlab olam va tafakkur ayniyati bo‘lgan va bu ayniyat dunyoni substansional asosini tashkil qilgan”, ana shu olam va tafakkur ayniyati til egalarining konseptual va umumiy lisoniy fondidir. Muayyan millat yoki xalqqa tegishli bo‘lgan so‘z san’atkori olam va tafakkur ayniyatiga asoslangan umumiy lisoniy bilim fondi asosida har bir olam unsuridan obrazli ifoda vositasini yasay oladi. Olam manzarasini o‘zida aks ettiruvchi “tafakkur faqat subyektiv inson faoliyatinigina emas, balki obyektiv mohiyat, barcha mavjudotning birlamchi manbayi bo‘lgan” borliq haqidagi umumiy tushuncha va bilimlardan tashkil topadi. U har bir xalq va millat vakilining o‘ziga xos dunyoqarashini aks ettiradi, inson tafakkuridagi konseptual olam ifodasi borliqda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar mantiqiga quriladi. Inson tafakkuridagi konseptual olam lisoniy va nolisoniy vositalar orqali namoyon bo‘ladi, muallif tafakkuridagi olam unsurlari lisoniy badiiy manzaraga aylanadi. Borliq elementlari yoki olam unsurlari inson tafakkurini shakllantirishga xizmat qilar ekan, borliqdagi mantiq kategoriyalari inson tafakkuriga ham ko‘chadi. Inson tafakkuridan iborat bo‘lgan konseptual olam mantiq‘i lisoniy-badiiy tasvirda ham aks etadi. Asardagi badiiy detal muallif istagan obrazli ifoda sifatida u yoki bu mazmunni, aniqroq aytganda, badiiy matn implitsit mazmunini mantiqiy tafakkur asosida aktuallashtiradi. Demak, badiiy adabiyotda ham mantiq degan tushuncha mavjud bo‘lib, “badiiy mantiq ijodkor ideasi, ijodiy xayoli, dunyoqarashi bilan qay darajada bog‘liq bo‘lmasin, obrazlar, voqealarning badiiy talqinini, vazifasini belgilashda u hayotiy mantiqqa rioya qilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Нурмонов А. Tanlangan asarlar III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б.34.
2. Черняков А.А. Художственная деталь как объект эстетического анализа: Автореф. дисс. ... канд. филол. Наук. – Астрахань, 1978. – С. 8.
3. Султонова М. Абдулла Қаҳҳор услуби. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 123.

